

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“MILLIY QADRIYATLAR DIALEKTOLOGIK
ATLASI – TARIXNI O‘RGANISHDA
MUHIM MANBA”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

1-KITOB



Navoiy – 2024

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TASHKILY QO'MITASI

M.B.Kalonov	Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, rais. A'zolar:
D.Narziqulova	NavDPI Ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, a'zo.
X. Qurbonov	NavDPI Yoshlar masalalari bo'yicha prorektori, a'zo.
A.Allaberdiyev	NavDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, a'zo.
B.Zaripov	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, a'zo.
N.Murodova	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, a'zo
R.Yusubova	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, a'zo
F.Yuldashev	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, a'zo
N.Yarashova	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, a'zo
N.Raxmonov	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, a'zo
G.Norova	NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, a'zo

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANNING TAHRIR HAY'ATI

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
R.Sharopova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
N.Yarashova	Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)

Maqola va tezislarining ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

14. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент, 2009.
15. Холмўминов Ж. Глобаллашув ва миллий тил тақдири
https://www.researchgate.net/publication/337655601_GLOBALLASUV_VA_MILLIJ_TIL-konvertirovan
16. Эксперт: глобализация способствует вымиранию языков. [https:// nazaccent.ru/content/10480-v-obshestvennoj-palate-obsudili-problemy-izucheniya.html](https://nazaccent.ru/content/10480-v-obshestvennoj-palate-obsudili-problemy-izucheniya.html).
17. Языковая политика в России. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
18. Языковая политика и лингвистическая безопасность. Материалы второго международного научно-образовательного форума 25-26 сентября 2018 г. Нижний Новгород – 2018.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "QADRIYAT" MAZMUNYI MAYDONINING MIKROSISTEMALARI

*Zaripov Botir Po'latovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilshunosligida konsept tushunchasi, uning mazmun mohiyati, o'zbek va jahon tilshunosligi leksikografiyasida "qadriyat" konsepti haqida atroflicha mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: "qadriyat" tushunchasi, sintagmatik munosabat, konsept, moddiy va ma'naviy qadriyatlar, qadriyatlar guruhlar, leksik kategoriya, semantik xususiyatlar.

Abstract: The article discusses the concept of "value" in the lexicography of Uzbek and world linguistics.

Key words: concept of "value", syntagmatic relationship, concept, material and spiritual values, groups of "values", lexical category, semantic features.

"Dunyoda qadrlanadigan odamlar, narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to'g'ridan to'g'ri ism, atama yoki bevosita nom bo'la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatni ma'naviy-falsafiy tushunish uning kundalik hayotidagi ma'nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o'zi bog'liq bo'lgan obyektidan farqdash (aslo ajratish emas) bilan birga uni obyektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklilik) bilan aynanlashtirmaslik imkonini beradi"¹. Shunday qilib qadriyat biror tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari: narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik me'zonlari hamda bularning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir².

Tilshunoslikda "qadriyat" tushunchasi keng va ko'p qirrali soha bo'lib, batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Maqolani struktura qilish uchun umumiy semantika bilan bog'liq bo'lgan va "qadriyat" tushunchasining ma'lum bir tomonini aks ettiruvchi leksemalar guruhi bo'lgan yadrosini aniqlashdan iborat.

"Qadriyat" leksik kategoriyasida eng ko'p uchraydigan so'zlarni kalit deb hisoblab, kalit so'z barcha lug'aviy guruhlarda qatnashishi hamda uning mazmuni mazkur guruhlarda qatnashishi shart. Shu sababdan semantik markazlashuv amalga oshib, muayyan sohadagi eng umumiy tushunchani bildiruvchi semalarni yadro deb hisoblash maqsadga muvofiq. Shunday ekan "qadriyat" kategoriyasiga milliy konsepsiya darajasida tahlil etish maqsadga muvofiq. A.P.Babushkin konsepsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu haqiqiy yoki ideal mavzuni aks ettiruvchi kollektiv ongning diskret mazmunli birligidir. Dunyoning va ona tilida so'zlashuvchilarning milliy xotirasida og'zaki ravishda belgilangan shaklda saqlanadi, tushuncha esa leksik obektivlik bo'lmaganda mavjud bo'lmaydi"³. Demak, "qadriyat" mazmuniy maydonini milliy konsepsiyamiz sifatida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri.

L.A.Kiseleva shu bilan birga yadro semani ham tilga oladi va izohlab beradi. Uning izohiga ko'ra, "yadro sema so'zning o'zak ma'nosi ifodasiga teng keladi"⁴. Dastlab yadroni aniqlab olishda

¹ <https://staff.tiiame.uz/storage/users/640/presentations/PjNpGoefkC87KrWq6Fqo0rk3su5GnO6dnsGT9k0.pdf>

² Falsafa qomusiy lug'ati. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2004. – 468 b.

³ Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж : Издательство Воронежского государственного университета, 1996. – 104 с.

⁴ Qarang. Киселева Л.А. Коммуникативные языковые функции и семантическое строение словесного значения... // Проблемы семантики / Отв. ред. В.М.Солнцев. – М.: Наука. 1974. – С. 75.

tadqiq etilayotgan leksik kategoriya va uning ma'naviy guruhlari, mazkur guruhga tegishli leksemalarning xususiyatlari, semema va semalari hisobga olinadi. Ushbu sistemani aniqlashda semantik aloqalarni aniqlash orqali yadroni shakllantirish tahlil metodi muhim. O'rganilayotgan leksik kategoriyaning sistemasi leksik sathning ichki mikrosistemalarini tadqiq kiladi. Mazkur mikrosistemalardan biri bosh ma'no, ya'ni yadro sema, qolgan mikrosistemalar esa yadro semadan kengayadigan transformalardan biri markaz semasi¹. Mazkur tadqiqot ishida semantik aloqalarni aniqlash tahlil metodining asosiy vazifasi mavjud bo'lgan yadro semalarni aniqlash orqali, "qadriyat" leksik kategoriyasining leksik sistemadagi mohiyati, tabiati, ma'lum maqsadga ko'ra har xil shakllarda namoyon bo'lish imkoniyatlarini belgilashdir. Quyida "qadriyat" leksik kategoriyasi ana shunday mikroguruhlar asosida ijobiy yadroni, har bir ma'naviy guruh – yadroni, yadroga qarashli ma'naviy uyalar va unga tegishli leksemalar bilan markaz va chekka qismlarni shakllantirgan.

O'zbek tilidagi "qadriyat" mazmuniy maydoni sohasining asosiy tizimini tahlil qilish o'zbek madaniyati va uning qadriyat g'oyalarini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Bu, shuningdek, til odamlarning qadriyatlarini qanday aks ettirishini va shakllantirishini ko'rishga yordam beradi.

Quyidagi holatlar yadroni aniqlashda muhim jarayon hisoblanadi.

Dastlab umumiy munosabatlardagi "qadriyat" mazmuniy maydonida asosiy tushuncha umumiy tushunchani (qadriyatga oid tushunchalarni), tobe tushuncha (mavzuiy guruhlar, ma'naviy guruhlar) esa maxsus tushuncha, deb ataladi. Umumiy munosabatlarning muhim xususiyati – til tizimidagi mazmuniy maydonni o'zbek tilida ifodalanishini aniqlash. Aniqlangan mazmuniy maydon tizimi(mavzuiy guruhlar, ma'naviy guruhlar, ma'naviy uyalar) umumiy tushuncha uchun ("qadriyat" mazmuniy maydoniga) maxsus tushuncha bo'ladi.

Xususan, "qadriyat" mazmuniy maydoni ham o'zining umumiylik xususiyati bilan iyerarxik manzarasiga ega. Albatta, ushbu leksik kategoriya hajm va tuzilish nuqtayi nazaridan murakkab iyerarxik ko'rinish kasb etadi. Quyida "qadriyat" mazmuniy maydonining butun-bo'lak guruhlari haqida alohida-alohida iyerarxik jadvallar va ularning izohi keltirilgan. Har qaysi guruh tarkibidagi mavzuiy guruhlar hamda ularning ma'naviy uyalari, uyalarga tegishli leksemalar haqida fikrlar bildirilgan. Har bir guruhning iyerarxik manzarasi tahlil qilinayotgan ma'naviy guruhning semantik imkoniyati kengligini amalda aks ettiradi. Xususan, har bir guruhning iyerarxik manzarasi quyida tasniflangan.

Ularni amalga oshirishda semantik, sintagmatik hamda madaniy kontekst usullari orqali aks ettirdik

Sintagmatik munosabatlar mohiyati:

– Qadriyatga oid leksemalarni sintagmatik munosabat asosida yaqin semantik aloqaga ega bo'lgan so'zlar orqali yadroni aniqlash mumkin.

Masalan, "qadriyat"ni anglatuvchi "qiymat, ahamiyat, muhimlik holati, qadr-qimmat" semalari barcha qadriyatlar uchun umumiy nom bo'lgan sema(kalit so'z. muallif izohi) bo'lganligi uchun sohadagi boshqa so'zlar bilan eng yaqin bog'lanishga ega bo'ladi.

Masalan, *qiymat, e'tibor, aziz, ahamiyat, qimmat va baho* leksemalari kontekstda yadroga birlashadi va "qadriyat" tushunchasini anglatadi. ***Madaniy kontekst orqali yadroni aniqlash mohiyati:***

Muayyan madaniyatda qadriyatga oid leksemalarning eng muhim milliy-madaniy xususiyatlarini anglatuvchi ma'nosi bo'lgan so'zni yadro deb hisoblash mumkin. Masalan, "Milliy qadriyat" mavzui guruhining yadrosini "mehr-muhabbat", "ahillik", "ezgu fazilat", "totuvlik", "hurmat" semalari shakllantiradi. Tabiiyki, har bir semalar ma'lum uyalarni shakllantiradi. Xususan, "hurmat" semasi "ota va "ona"ni qadrlash, "qarindosh-urug' munosabatlari"ni qadrlash kabi "Milliy qadriyat" mavzuiy guruhini shakllantiradi.

Shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratish zarur. Yadro har doim ham bitta so'z bilan chegaralanmasligi mumkin. Masalan, u atov birlik (so'z, so'z birikmasi, leksema, barqaror birikmlar shaklida) bo'lishi mumkin. Leksik maydonning yadrosini niqlash uchun yuqoridagi barcha mezonlarni hisobga olish va eng mos keladigan so'z yoki so'z birikmasini tanlash kerak.

"Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo'lak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qo'l keladi. Bunda qadriyat shakllari bog'langan obyekt, jarayonlarning makon hamda zamonda zohir bo'lishi, ular o'rtasidagi bog'lanishlar va aloqalarni o'rganish, obyektiv asosi, subyektiv jihatlan anglanishi; umumiy, xususiy va alohida jihatlarini tahlil qilish imkoni tug'iladi. Bu esa qadriyatning namoyon bo'lish shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqani

¹ Yuldashev F. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini". Filol. fan. dok. (DSc)...diss. Avtoreferati. – Qarshi, 2023. – B. 56.

shakllantiradi. Bog‘lanish ham in‘ikosi bo‘lgan eng umumiy qadriyat tizimlariga xos xusyatlarni o‘rganish imkonini beradi”¹. Quyida mazkur tizimning yadrosi bo‘lgan asosiy tushunchalar va guruhlarini iyerarxiy munosabat asosida tahlil qilamiz.

Qadriyatlarning shartli ravishda “Sharqiy” qadriyatlarga bo‘linishiga yashash tarzi va ma‘lum ma‘noda “joylashish” ning ham o‘rni bor.

Biz shartli ravishda “Sharqiy” qadriyatlar mavzuiy guruhining yadrosini “birdamlik”, “e‘tiqod”, “o‘zaro hurmat”, “mehmondo‘stlik” umumiy ma‘nolar shakllantiradi. Ular esa o‘z navbatida ma‘noviy guruhlarini shakllantiradi.

I. “Sharqiy” qadriyatlar mavzuiy guruhi:

1.1. “Hamjihatlik” ma‘noviy guruhi: *oilaga e‘tibor, jamoaga e‘tibor, munosabatlardagi ahillik, an‘analarga sadoqat* atov birliklari;

1.2. “Keksalarga hurmat” ma‘noviy guruhi: *ota-bobolarga hurmat, keksa avlodlarning obro‘-e‘tibori va donoligini hurmat qilish*;

1.3. “Mehmondo‘stlik” ma‘noviy guruhi: *qarindosh-urug‘lik munosabati, an‘anaviy mehmondo‘stlik, millatlararo totuvlik*;

1.4. “Vatanparvarlik” ma‘noviy guruhi: *Vatanga muhabbat, o‘z yurtiga sadoqat*.

Qadriyat “Ma‘naviy qadriyatlar” va “Moddiy qadriyatlar” mavzuiy guruhlarining sistemasi quyidagi shaklda tarmoqlanadi. Qadriyatlarning *ma‘naviy* va *moddiy* qismlarga bo‘linishi ularning inson hayoti va dunyoqarashining turli sohalariga tegishlilikni aks ettiradi. Ma‘naviy qadriyatlar mavzuiy guruhi “insonning ichki dunyosi”, “axloq”, “ma‘naviy qarashlar”, “e‘tiqod” semalari uning yadrosini shakllantiradi, o‘z atrofida quyidagi ma‘noviy guruhlariga ajraladi.

I. “Milliy qadriyatlar” mavzuiy guruhining ichki sistemasini aniqlash uchun uning yadrosi bo‘lgan “ezgulik” umumiy ma‘noli ma‘noviy guruhlar shakllanadi.

1.1. “Axloqiy qadriyatlar” ma‘noviy guruhi:

Mazkur guruh “ma‘naviy fazilat”, “yaxshilik, mehribonlik” semasi orqali quyidagi leksemalarni o‘z ichiga oladi hamda millatimiz uchun milliy qadriyat sifatida baholanadi. Bu semalar axloqiy qadriyatlarning asosidir: *to‘g‘rilik, halollik, mehribonlik, mehr-shafqat, adolat, mardlik, sabr-toqat, rahm-shafqat*.

1.2. “Adolat” ma‘noviy guruhi. Bu so‘z adolatli muomala va qonun oldida tenglik degan ma‘noni anglatadi.

1.3. “Urf-odatlariga bo‘lgan qadriyat” ma‘noviy guruhi: *to‘y, a‘za, turli marosimlar, mavsumiy marosimlar, yosh bilan bog‘liq ma‘rosimlar*;

1.4. “Oilaning ulug‘lanishi”ga bo‘lgan e‘tibor: *ota-onani hurmatlash, farzandni asrash, qiz farzandga nisbatan e‘tibor, qarindoshlarga mehribonlik*.

Shuningdek iqtisodiy qadriyatlarni ham ma‘lum ma‘noda guruhlariga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

I. “Iqtisodiy” qadriyatlar: Olamning o‘zbek lisoniy manzarasida “iqtisodiy qadriyat” mavzuiy guruhi quyidagi ma‘nolar asosida ma‘noviy guruhlariga bo‘linadi.

1.1. “Davlatning yer osti va yer usti boyliklarini asrash” ma‘noviy guruhi: Mazkur guruhga oid so‘z va birikmalar shu millatning lisoniy ongida shakllanadi, takomillashadi, rivojlanadi hamda shu xalqning qadriyatlariga aylanib boradi. Masalan, “adolatli taqsimlanish”, “daromadlar tengligi”, “ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi”, “davlat mulki”, “xalq mulki”, “shaxsiy mulk”, “mulk dahlsizligi”, “oilaviy mulk” kabi atov birliklari mazkur guruhni shakllantirishga asos bo‘ladi.

1.2. “Resurslardan oqilona foydalanish” mavzuiy guruhi: Zamonaviy qadriyat sifatida kirib kelayotgan mazkur tushunchalar “tejamoq”, “asrab-avaylash”, “isrof qilmaslik”, “unumdorlikni oshirish” va “turmush darajasini yaxshilash” atov birliklari bilan qadriyatga bilvosita aloqador. Masalan, “isrof qilmaslik” qo‘shma fe‘lini “qadriyat” mazmuniy maydoniga qanday aloqador ekanligini tahlil qilamiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **ISROF** leksemasi “ortiqcha, me‘yordan ko‘p xarajat qilish, nest-nobud qilish; o‘rinsiz yoki ortiqcha ishlatish, yo‘q qilish ma‘nosini anglatadi. *Isrof qilmaslik* inkor ma‘nosi esa, ushbu leksemaning aks ma‘nosini anglatadi. Xalqimizda isrof qilmaslik haqida aforizmlar va maqol-matallar ham yuzaga kelganki, bu milliy qadriyatimizga aylanib ulgurgan, shu asosida bizning lisonimizga turli atov birliklar shaklida kirib borgan. Masalan, *Tejam bilan ishlatsang, uy-ro‘zg‘oring but. Isrof bilan ishlatsang, yomon kunni kut*. “Qanotli so‘zlar”. Ushbu birgina maqol lingvokulturalogiyaning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, O‘Tilda **isrof qilmoq** birikmasi “bekorga (ortiqcha) ishlatmoq, nobud qilmoq” semasi bilan ota-bobolarimizning qadriyatlariga zid ravishdagi harakatni bildiradi.

¹ Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. – 468 б.

1.3. “Tadbirkorlik erkinligi” manoviy guruhi: Mazkur guruh “Iqtisodiy qadriyatlar” mavzuiy guruhining zamonaviy qadriyatlar ma’naviy guruhiga aloqador. Bu guruh “tadbirkorlik bilan shug’ullanish”, “shaxsiy loyiha”. “biznes yaratish” va “bozorda raqobat qilish” atov birliklari va umumiy semalari asosida mazkur guruhni shakllantiradi hamda o’z ichida yuzga yaqin leksemalarni qamrab oladi.

1.4. “Erkin bozor” ma’naviy guruhi: “iqtisodiy o’sish”, “sog’lom raqobat”, “milliy brend”, “zamonaviy savdo kompleksi”, “farovonlik kaliti”, “farovonlikka yordam” kabi yangi atov birliklar, yangi birikmalar, yangi jummalarni shakllantirishga hissa qo’shadi.

1.5. “Innovatsion va texnologik taraqqiyot” ma’naviy guruhi: Ma’lumki, qadriyatlar o’ta barqaror va o’zgaras hodisa emas. Ular davrning o’zgarishi bilan, yangi texnologiyalarni rivojlantirishni bilan, innovatsion faollikning ortib borishi bilan ham o’zgarib insonlar hayotiga kirib boradi hamda shu davrda yangi leksemalar, atov birliklar hamda yangidan yangi neologizmlarning paydo bo’lishiga asos bo’ladi. Masalan, *innovatsiya* leksemasi bugungi kunda faollashib ketdiki, hatto obyektlar, ta’lim muassasalari uchun nom(atoqli ot) darajasida ham qo’llanmoqda.

1.6. “Barqarorlik va barqaror rivojlanish” ma’naviy guruhi: Bugun globallashuv davri barcha davlatlarda “iqtisodiy barqarorlik”, “inqirozning oldini olish”, “atrof-muhitni muhofaza qilish” kabi tushunchalarning paydo bo’lishiga asos bo’lib xizmat qilmoqda.

“Estetik qadriyatlar” ma’naviy guruhi:

6 jildli O’zbek tilining izohli lug’atida “ESTETIKA / *yun.* aisthetikos – hissiy idrokka (bilishga) oid] 1. Nafis san’at va badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go’zallikning mohiyati va shakllarini, inson va olam o’rtasidagi qadriyatlar munosabatini o’rganuvchi falsafiy fan”¹ shaklida izohlangan. Mazkur termin “go’zal” semasi orqali estetik qadriyatlarni aks ettiradi. Terminning ma’nosi keng bo’lib, moddiy va ma’naviy go’zallikni aks ettiradi. Bundan ko’rinadiki mazkur guruh “Umuminsoniy qadriyatlar” mavzuiy guruiga taalluqli bo’ladi hamda moddiy va ma’naviy xarakterdagi qadriyatlarni anglatadi. Go’zallikni ifodalovchi leksemalar: *chiroyli, muhtasham, nafis, uyg’un, rang-barang, nafosatli, nafis, nafis, maftunkor.*

“Ijtimoiy qadriyatlar” mikrotizimni anglatuvchi qadriyatlari:

1.1. “Oila qadriyatlari” ma’naviy guruhi: Oila o’zbek hayotining asosiy ustunidir. “iliqlik”, “an’ana”, “mas’uliyat”, “avlodlar davomiyligi”, “sevgi va g’amxo’rlik” semalari mazkur guruhni shakllantiradi.

1.2. “O’zaro hurmat” ma’naviy guruhi: “bobo va buvilarga hurmat”, “ustozlarga hurmat”, “mehmonlarga hurmat” semalari asosida shakllanadi.

1.3. “Tinchlik uchun kurash qadriyati” ma’naviy guruhi: “Tinchlik va osoyishtalik”, “farovonlik va osudalik” semalari ushbu guruh uchun yadro vazifasini bajaradi.

1.4. “Ozodlik qadriyati”: “Istiqlol”, “erkinlik”, “mustaqillik” semalari asosida shakllanadi.

V. “Hayot qadriyatlari” mavzuiy guruhi: Hayot qadrini ifodalovchi “hayot”, “sog’lik”, “baxt”, “muhabbat”, “oila”, “do’slik”, “erkinlik”, “farovonlik” semalar ushbu guruh uchun yadro vazifasini

VI. “Vaqt qadriyatlari” mavzuiy guruhi: Vaqt ahamiyatini ifodalovchi leksemalar: vaqt, tezlik, samaradorlik, unumdorlik, shoshilinchlik, muddat.

Shuni yodda tutish kerakki, bu leksik birliklar va tushunchalar turg’un emas, balki o’zbek jamiyati bilan birga rivojlanadi. Ularning ma’nosi kontekst va vaqtga qarab farq qilishi mumkin.

Navbatdagi mavzuiy guruhimiz “Umuminsoniy qadriyatlar” juda keng tushuncha bo’lib, ularni turli mezonlar, jumladan, ma’naviy guruhlariga ko’ra tasniflash mumkin, hatto, biz yuqorida ichki sistemaga ajratgan bazi ma’naviy guruhlar ham mazkur guruhning tarkibiga oid bo’ladi. Sababi “Umuminsoniy qadriyatlar”ning mohiyati shundan iboratki, ular jamiyatning katta qismiga tegishli bo’lgan tamoyillar, e’tiqodlar va ideallar yig’indisidir. Ular shaxs ma’naviy qarashlari, ularning axloqiy qarashlari, xulq-atvor va odamlar o’rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ushbu guruh boshqa mavzuiy guruhlariga qaraganda keng va serqirra. Shu boisdan uni quyidagi shaklda guruhlariga ajratamiz.

“Umuminsoniy qadriyatlar” mavzuiy guruhi:

1.1. “Ma’naviy qadriyatlar” ma’naviy guruhi: Bunga shaxs ma’naviy sifatlari bilan bog’liq bo’lgan hamda insonning ichki dunyosi bilan bog’liq qadriyatlar kiradi. Ula esa ma’naviy uyalarga ajraladi.

1.1. “Tarbiyaga asoslangan qadriyat” ma’naviy uyasi. Mazmuniy maydonda markaziy qatorlaridan joy oladigan leksemalardan biri “tarbiya” leksemasi. Mazkur leksemaning ma’naviy qadriyatlardagi o’ziga xos, u bu tushunchaga xalqimizning munosabati bilan farqlanadi. Farzandlarni tarbiyalash muqaddas burchligi, bitta bolaga yettita qo’shni tarbiyalovchi ekanligi shular jumlasidandir². Tarbiya

¹ O’zbek tilining izohli lug’ati: 80 000 dan ortiq so’z va so’z birikmasi. 6 jild. J.II.– T. O’zME, 2022-yil. – B. 58.

² Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 25.

“ma’naviyat” leksik kategoriyasining “axloq” ma’naviy guruhidan joy oladigan leksema, “ma’naviyat” kategoriyasiga nisbatan markaz vazifasini bajaradi. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi.¹ Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmga chanqoq va har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazishga intilish hamma zamonlarda ham insoniyatning oldiga qo‘ygan muhim vazifasi hisoblangan. O‘z davrining yetuk mutafakkirlari hisoblangan buyuk ajdodlarimiz yaratgan nodir asarlarda tarbiya bosh mavzu bo‘lib kelgan. Ularning durdona asarlari o‘tib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, ma‘nan yetuk inson bo‘lib yetishishlariga undagan. Asrlar davomida sevib mutolaa qilib kelinayotgan “Pandnoma”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Turkiy guliston yoxud axloq” va hokazo asarlar shular jumlasidandir. Yuqoridagi asarlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, tarbiya tushunchasining keng va tor ma‘nolarda ifodalanishining guvohi bo‘lamiz.

“Keng ma‘noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan barcha ta‘sir, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san‘at, kino, radio va boshqalarni ham qamrab oladi. Shuningdek, keng ma‘nodagi tarbiya tushunchasi zamiriga ta‘lim va ma‘lumot olish ham kiradi. Tor ma‘nodagi tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi”.² Qolgan ma‘noviy uyalar ham shu shaklda izohlanib, ma‘noviy kengayib boradi.

1.2. “Ma‘naviy rivojlanish” ma‘naviy uyasi: *Ma‘naviyat, sezgi, ichki dunyoni bilish, haqiqatni qidirishni rivojlantirish* atov birliklari bilan kengayadi;

1.3. “Rahmdillik” ma‘naviy uyasi: *hamdardlik, bag‘rikenglik, saxiylilik, xotamitoqlik* leksemalari;

1.4. “Kechirimlilik” ma‘naviy uyasi: *xafagarchiliklardan xalos bo‘lish va salbiy his-tuyg‘ularni ko‘tarmaslik qobiliyati* atov birliklari;

Shaxsiy aloqalar bilan bog‘liq qadriyatlar:

1.1. Mehribonlik: *rahm-shafqat, yordam, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish* leksemalari;

Shunday mikroguruhlardan yana biri “mehribonlik” ma‘noviy uyasi hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu leksemaga shunday ta‘rif berilgan: *Mehr* – sevgi, muhabbat, moyillik. 1 Insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usi. 2 Shafqat, rahmdillik³.

A.Peshkovskiy “so‘zning semantik birligi unda odatda izohli lug‘atlarda ajratiladigan xususiy ma‘nolarni o‘ziga bo‘ysundiruvchi muayyan “umumiy ma‘no”ning mavjudligi bilan emas, balki bu alohida mustaqil ma‘nolarning bir-birlari bilan ma‘lum munosabatlari va ularning bitta belgiga bog‘lanishi bilan asoslanadi”, – deb ta‘kidlaydi⁴.

“Mehribonlik leksemasi lug‘atdagi ma‘nosi bilan chegaralanib qolmaydi. Ushbu leksema “muhabbat”, “sadoqat”, “ixlos”, “sevgi”, “mehribonlik”, “oqibat”, “hurmat”, “moyillik”, “sog‘inish”, “rahmdillik”, “ko‘ngliga yaqin olmoq”, “suyib munosabatda bo‘lish tuyg‘usi”, “e‘zozlamoq” kabi semalari bilan mavzuiy guruhni kengaytirishga hamda *mehr* leksemasining semantik qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu leksemaning semantik tarkibini oydinlashtirish uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash yo‘li bilan ochiladi. *Mehr* leksemaning sinonimlari va antonimlari hamda ularga tegishli leksemalar asosida *mehr* mikromaydoni hosil bo‘ladi. Xususan, *mehr* leksemasining leksik va kontekstual sinonimlari (rahm-shafqat, muhabbat, shafqatlilik, saxovat, oqibat) leksik va kontekstual antonimlariga (nafrat, shafqatsizlik, jirkanish, g‘azab, yoqtirmaslik) oid bo‘lgan birliklar asosida *mehr* mikromaydoni paydo bo‘lishini hamda uning mazmuniy maydoni kengligini shakl va ma‘no munosabatidan ko‘rish mumkin”⁵.

Bu ijodkorning lisoniy manzarasida ham aks etib, misralarga ko‘chadi:

“Savob deb ingraydi dunyomiz behol,

Zordir u najotbaxsh hislar sehriga.

Janglarda toliqqan majruh zot misol,

¹ Бу ҳақида қаранг. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: О‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 587

⁴ Пешковский А. Избран труды. М., 1959. – Б. 83.

⁵ О‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. J. I. – O‘zME. 2022-yil. – B. 148-bet

Suyanib yashar u inson mehriga”¹.

1.2. Muhabbat: *yorga, vatanga, hayotga, san’atga muhabbat* leksemalari;

1.3. Halollik: *rostlik, odoblilik, adolatlik* leksemalari;

1.4. Sodiqlik: *printsiparingizga, va’ dalarangizga, do’stlaringizga, oilangizga sodiqlik* leksemalari;

1.5. Ishonch: *boshqalarning halolligi va ishonchliligiga ishonish* leksemalari;

1.6. Mas’uliyat: *oilangiz, jamiyatingiz va mamlakatingiz oldidagi mas’uliyatingizni tushunish*.

Jamiyat bilan bog’liq qadriyatlar:

1.1. Erkinlik: *so’z, fikr, tanlash erkinligi* leksemalari;

1.2. Adolat: *qonun oldida tenglik, inson huquqlarini himoya qilish* leksemalari;

1.3. Vatandarlik: *Vatanga muhabbat, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik* leksemalari;

1.4. Fuqarolik mas’uliyati: *jamoat hayotida ishtirok etish, fuqarolik burchlarini bajarish* leksemalari;

“Qadriyat” tushunchasining serqirra ekanligi uni turli kategoriya sifatida talqin qilinganda hamda har birining maqsad va vazifalari aniq belgilanganda namoyon bo’ladi. “Qadriyat” tushunchasi falsafiy, aksiologik, lingvoma’naviy va lingvomadaniy birlik sifatida universalidir. “Qadriyat” mazmunini maydonining subyektivligi, obyektivligi, qadriyat kategoriyasining o’zgaruvchanligi va tizimliliigi hamda uning lingvistik va nutqiy ba’zalari orqali namoyon bo’ladi. Qadriyatni falsafiy kategoriya sifatida o’rganishda uning milliy, mental va asosiy e’tibor ijobiy qadriyatlarga asoslanib o’rganilsa, lingvistikada esa “qadriyat” umumiy semali atov birliklarning ijobiy va salbiy, bevosita va bilvosita aloqadorlik xususiyatlari hamda ona tilida so’zlashuvchilarning lisonida qadriyat va antiqadriyatlarga oid so’zlaridan foydalanganda ularning lingvistik tahlilida namoyon bo’ladi. Zotan, har bir inson milliy qadriyatlari dunyosida yashaydi, uning lingvistik ba’zasidan foydalanib fikrlydi. Babaeva shunday yozadi: Qadriyatlar – bu insonni o’z faoliyatida boshqaradigan va uning xulq-atvori normalarini belgilaydigan maqsadlardir² ta’rifi bevosita lingvoma’naviyatshunoslikning ham obyekti bo’la olishini ko’rsatadi. *Xulq-atvor* leksemasi – bu “axloq” lingvistik kategoriyasiga oid tushuncha bo’lib, “ma’naviyat” mazmunini maydonining yadrosi³ hisoblanadi. Demak, “qadriyat” mazmunini maydoniga oid atov birliklar moddiy va ma’naviy tushunchalar bilan bog’liq ekanligining isboti.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so’zning lug’aviy ma’nosi sohaga ko’ra tartibga solinadi. Leksik ma’noni leksik kategoriya sifatida o’rganish semasiologik tadqiqotlar uchun qiziqarli istiqbollarni ochadi, chunki u ko’plab an’anaviy semasiologik masalalarni kengroq ko’rib chiqishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR :

1. Falsafa qomusiy lug’ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2004. –468 b.
2. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж : Издательство Воронежского государственного университета, 1996. – 104 с.
3. Киселева Л.А. Коммуникативные языковые функции и семантическое строение словесного значения... Проблемы семантики / Отв. ред. В.М.Солнцев. – М.: Наука. 1974. – S. 75.
4. F.Yuldashev. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini”. Filol.fan.dok(DSc)...diss. Avtoreferati. Qarshi, 2023. – B. 56.
5. Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. –468 б.
6. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 25.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: O’zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 587
8. Пешковский А. Избран труды. М., 1959. – Б. 83.
9. O’zbek tilining izohli lug’ati:80 000 dan ortiq so’z va so’z birikmalari. J. I. – O’zME. 2022-yil. – B. 148-bet
10. Babaeva E.V. *Lingvokul’turologicheskie kharakteristiki russkoy i nemetskoy aksiologicheskikh kartin mira* [Linguistic and Cultural Characteristics of the Russian and German Axiological Pictures of the World]. Dis.... d-ra filol. nauk. Volgograd, 2004. 438 p.

¹ <https://kitobxon.com/oz/kitob/abdulla-oripov-saylanma>

² Babayeva E.V. *Lingvokulturologicheskie kharakteristiki russkoy i nemetskoy aksiologicheskikh kartin mira* [Linguistic and Cultural Characteristics of the Russian and German Axiological Pictures of the World]. Dis.... d-ra filol. nauk. – Volgograd, 2004. – 438 p.

³ Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini”. Filol.fan.dok (DSc)...diss. Avtoreferati. – Qarshi, 2023.

11. F.Yuldashev. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini". Filol.fan.dok(DSc)...diss. Avtoreferati. Qarshi. 2023.
12. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>.
13. <https://staff.ttiame.uz/storage/users/640/presentations/PjNpGoefFkC87KrWq6Fqo0rk3su5GnO6dn sGT9k0.pdf>.
14. <https://kitobxon.com/oz/kitob/abdulla-oripov-saylanma>.

ONA TILI JOZIBASI

*Boltayeva Gulchehra Shokirovna,
NavDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

**Ona tilimizning jozibasini begona osmon ostida
eshitganimizdagina his qilamiz (Bernard Shou).**

Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoji o'laroq ijtimoiy hodisa ekan, inson dunyo yuzini ko'rmasdanoq tilga ehtiyoj sezadi, bizningcha. Bugungi kunda ilm-fanning yuksak yutuqlari asosida ona qornidagi homila va uning rivojlanish bosqichlari ham bo'lajak farzandning ona suhbatini, uning kitob o'qishi-yu, kuy tinglashi, xirgoyi qilishi, yaxshi-yomon fikrlarni aytganda unga reaksiya berishi, oilada bo'ladigan noxush holatlarni seza olishi va shunga mutanosib ravishda rivojlanishi fan tomonidan isbotlangan. Inson dunyoga kelishi bilan esa til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar, to'plangan tajribalar avloddan-avlodga yetkaziladi.

Tilda insonning eng go'zal, beg'ubor tuyg'ulari mujassam bo'ladi, turfa fazilatları ona allasi va ertaklar olami orqali shakllanadi. Har bir millat egasining ong-u shuuriga til birliklari tarx, qolip sifatida avlodlarning tafakkur va ma'rifat karvoni orqali o'tib boradi. Unda xalqning o'y-fikri, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari aks etadi. Til millatning milliyligini ta'minlovchi asosiy omildir. Zero, har qanday jamiyatda o'sha tilda so'zlovchi millat vakillari yashaydi va jamiyat rivoji uchun mehnat qiladi. Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Til va jamiyat chambarchas bog'lik ekan, uning a'zolari ham tilning rivojlanishiga yoxud tanazzulga uchrashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarixdan necha tillarning iste'moldan chiqib, o'lik tilga aylangani bunga yorqin dalildir. Sobiq SSSR davrida "ruslashtirish siyosati" mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning tili, urf-odati va madaniyatiga jiddiy xavf soldi. Bu siyosat, ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy sohada halokatli oqibatlarğa olib kela boshladi. Turkiy millatlar, turkiy xalqlar birdamligiga putur yetdi. Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Bu Qonunning qabul qilinishi istiqlool tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Mazkur Qonunning 1-moddasi va Konstitutsiyamizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" ekanligi va O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi ham belgilab qo'yildi. 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor, uning nufuzini mustahkamlash yo'lidagi qat'iy qadam edi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktyabrni "O'zbek tili bayrami kuni" etib nishonlash belgilandi. Mamlakatimizning har go'shasida, korxona va muassasalar, ta'lim maskanlari, mahalla-u ovullarda til bayrami keng nishonlanadi. Bu esa, barchamiz uchun ona tilimizni qay darajada ardoqlashimiz va hurmat qilishimizni bildiradi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi asnosida ona tilimiz obro'si, nufuzi, go'zalligi va jozibasini namoyon etish bilan birga, uni ilmiy-ommaviy ravish rivojlantirish nazarda tutildi. Shuningdek, davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlab, uni o'rgatuvchilarga barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. O'zbek tili va adabiyoti fanidan milliy sertifikatga ega o'qituvchi-murabbiylarning oylik maoshiga qo'shimcha haq to'lash, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligidan doktoranturağa o'qishga kirmoqchi bo'lgan talabgorlarga mutaxassislik imtihonidan 100 % ball berilishi shular jumlasidandir. Abituriyentlar ham bilim va malakalarini oshirib, ona tili va adabiyoti fanidan bilimlarini sertifikatlashga intilishi, 2024-2025-o'quv yili kirish imtihonlarida milliy sertifikat uchun tushgan arizalarning katta qismi ona tili va adabiyoti faniga to'g'ri kelishi, quvonarli hol, albatta. Eng ko'p ariza topshirilgan fanlar sirasiga quyidagilar kiradi:

MUNDARIJA:

SO'ZBOSHI		3
Kalonov Muhiddin Bahriddinovich		4
BIRINCHI SHO'BA		
MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR DIALEKTIKASI		
1.	C.A.Каримов, А.Б.Пардаев Тиллар глобаллашуви ва ўзбек тили амалда бўлишининг айрим жиҳатлари	5
2.	B.P.Zaripov O'zbek tilshunosligida "qadriyat" mazmuniy maydonining mikrosistemalari	9
3.	G.Sh.Boltayeva Ona tili jozibasi	15
4.	M.Z.Yuldosheva Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo'lishi	17
5.	O.F.Эшдавлатов Дунёқараш ва қадриятларнинг ёш авлодни тарбиялашдаги роли ва аҳамияти	20
6.	V.Ashirov Milliy ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy tarixiy asoslari (Navoiy viloyati misolida)	23
7.	Z.A.Qarshiboyeva Milliy va umuminsoniy qadriyatlar imom al-buxoriy saboqlarida	25
8.	М.Ф.Хайитмуродова Основные требования к профессиональным умениям и личностным качествам педагога	27
9.	L.Karimova "Axloqiy tarbiya" ma'noviy guruhining semantik xususiyatlari	29
10.	N.Ashurova Ilmiy rahbar: prof. R.Yusubova Abdulla Oripov she'rlarida satiraning ko'rinishi	30
11.	D.Qurbonova Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova Mahmud Koshg'Ariyning „Devoni lug'otit turk" asarida qipchoq lahjasida qo'llaniladigan so'zlar	31
12.	F.Muxammadiyeva Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiya" asaridagi maishiy turmushda ishlatilgan ayrim so'zlarning qiyosiy o'rganilishi („Devoni lug'atit-turk", „Shajarai turk", „tarjumon" asarlari misolida)	34
13.	S.Shermatova Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova "Devoni lug'otit-turk" asarida uchrovchi zoonimlar tasnifi	36
14.		
15.	N.Sanoyeva Oilada ustoz-shogird an'anasi	38
16.	D.Suvonqulova Milliy qadriyatlar dialiktologik tarixni o'rganishda muhim manba	39
IKKINCHI SHO'BA		
AREAL LINGVISTIKA VA LINGVISTIK GEOGRAFIYA MUAMMOLARI		